

Sana: 19-mart

Sinf: 7" G"

Fan: Tarix

Mavzu: Amir Temur markazlashgan davlat asoschisi.

Darsning maqsadi:

a) Amir Temurning hokimyat tepasiga kelishi;
Amir Temur Amir Husayn bilan olib brogan urushlari;
Amir Temurning amiri deb e`lon qilinishi ;
Movorounnahr amiri deb e`lon qilinishi;
Movorounnahrda markazlashgan davlatning vujudga kelishi haqidagi bilimlarga ega bo`lish.

b) O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

c) O`quvchilarni matn ustida ishlay olish ko`nikmasini rivojlantirish

Dars turi: Yangi tushuncha, bilimlarni shakllanturuvchi

Dars metodi:

Dars jihozi: Texnik vosita, slayd, Amir Temurga bag`ishlangan video rolik.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism. (2-daqiqa)

1. Sinfda o`quvchilarni darsga jalb qilib, ishchi muhitini yaratish.
2. Dunyoda va O`zbekistonda yuz bergan muhim yangiliklardan xabarlar.

II. O`tilgan mavzuni so`rash. (10-daqiqa)

Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi.

Bu vazifani bajarish uchun o`quvchilar 4-guruhga bo`linadi, "brenrayting" uslubidan foydalinaladi. Ushbu uslubning qo`llanishi breynstorming uslubiga o`xshash bo`lib, faqat unda barcha g`oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa, o`z g`oya va fikrlarini og`zaki bayon etishga uyaladigan yoki qiynaladigan ba`zi tibglonchilar uchun qulaylik yaratadi. O`quvchilar tomonidan yozilgan fikrlar, g`oyalarning inloviy va uslubiy xatolariga e`tabor qaratilmaydi xamda yozilgan fikrlar oralarida keyinchalik xayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo`sh joylar xam bo`sh joylar qoldiriladi.

O`quvchilar o`z fikrlarini erkin, tanqid qilmasdan ifoda etishga chaqiriladilar. G`oyalar taxlili keyinroq o`tkaziladi. Bu usuladan foydalanganda . muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.

Masalan:

1) XIV asrning 60-yillarida Movorounnahrda siyosiy vaziyat qanday edi?

J: Movorounnahr parokanda bo`lgan, talangan, inqirozga yuz tutgan. Mamlakatni birlashtirish zarur bo`lib qoladi.

2) Amir Temur markazlashgan davlat tuzishda kimalrga tayanadi?

J: Ruhoniylar, harbiylar, savdogarlarga.

3) Amir Temur qachon Movorounnahr amiri deb e`lon qilinadi?

J: 1370-yilning aprelida

4) An`anaga ko`ra kimni xon qilib ko`tarishdi?

J: Suyurg`atmishxonni, so`ng o`g`li Sulton Muhammadni

5) Davlat poytaxti qaysi shahar bo`ladi?

J: Samarqand

O`qtuvchi har bir guruhni javoblarini terib olib raqib guruhlariga almashtiradi. Guruhlar bir-birovlarini tekshirib beradilar, o`qtuvchi tomonidan xatolar e`lon qilinib, umumiy ballar aytiladi.

III.Yangi mavzuni tushuntirish.(6- daqiqa)

- 1.Siyosiy tarqoqlik.
- 2.Amir Temurning yoshlik davri
- 3.Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi.
- 4.Samarqand sarbadorlari
 - 1)XIV asrning 50-60-yillarida Movorounnahr 10 ga yaqin mustaqil bekliklarga bo`linib ketgan. Samarqand viloyatida **Amir Bayon Sulduz**, Keshda **Amir Hoji Barlos**, Xo`jandda **Amir Boyazid Jaloir**, Balxda **O`ljaytu Yulduz**,
Hisor Shodmon chegarasida **Amir Husayn va Amir Yasovuriylar** o`zlarini mutlaq hokim deb e`lon qiladilar.
 - 2) **Amir Temur** Kesh (Shahrisabz) shahri yaqinida Xojaiilg`or qishlog`ida 1336-yil, 9-aprel kuni tavallud topgan. Uning to`liq ismi **Amir temur ibn Amir Tarag`y ibn Amir Barqul**. Amir Temurning onasi **Takina xotun** Kesh yurtining obro`li *beka* (bekog`o) laridan hisoblangan . Uning otasi **Amir Tarag`ay** barlos urug`ining oqsoqollaridan bo`lib, ajdodlari Kesh va Nasaf viloyatida o`z mulklariga ega bo`lgan va bu yurtida hokimlik qilgan.
 - 3)XIV sarning 50-yillari oxirida Movorounnahrda amirlarning o`zaro kurashi kuchayib, mamlaktda siyosiy parokandalik avjiga chiqadi. Mo`g`uliston xonlari Movorounnahrda og`ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu o`lkada o`z hokimyatini o`rnatishga harkat qiladilar. **Tug`luq Temur** 1360-1361-yillarida Movorounnahrda birin-ketin 2marta bostirib kiradi. Movorounnahramirlari xalqqa bosh bo`lib mo`g`ul bosqinchilariga qarshi kurashga jur`at eta olmaydilar.
 - 4)Sarbadorlar harakati XIV asrning 60-yillarida Movorounnahrda mo`g`ul xonlarining hujumi munosabati bilan vujudga keldi. Samarqand sarbadorligi muddaris **Mavlonzoda Samarqandiy**, hunarmand **Abu Bakr Kuluiy** va shahar mahallaridan biribing oqsoqoli, mohir mergan **Xurdaki Buxoriylar** boshchilik qiladilar. Sarbadorlar mo`g`ullarga Samarqand shahrida qaqshatqich zarba beradilar. Buning ustiga Ilyos xojaning ot uyuri orasida o`lat tarqab, ortlar qirila boshladi. Chorasiz qolgan Ilyosxoja avval Samarqand, so`ngra esa butun Movorounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo`ladi.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash (22- daqiqa)

Bu vazifa «Taqdimot» usuli orqali bajariladi.

Taqdimot-axborot, nazariya yoki tamoyillarini o`quvchilarga yetkazish maqsadida ekspert tomonidan o`tkaziladigan tadbir, turli (ma`ruza, savol berish, munozara yuritish) shakllarda o`tkazilishi mumkin. Taqdimotning mazmuni uslub sifatida o`qituvchiga ko`proq bog`liq bo`ladi.

Uni o`tkazish tartibi:

- 1.O`quvchilarni mavzu biolan tanishtirish- so`zlab bermoqchi bo`layotgan narsalar to`g`risida bayon etish.
- 2.Sinfdagi bor imkoniyatdan foydalanib, mavzu bilan tanishtirish
- 3.Bajarilgan ishga yakun yasash
- 4.O`quvchi larning savollariga javob berish.

Guruhlarda ishlash.

1-guruhga topshiriq: 1365-1370-yillarida Amir Temur jang qilgan shahar va hududlarni yozuvsiz xarita yoki vatman qog`ozga tushirish.

2-guruhga topshiriq: 1370-1372-yillarda Amir Temurning harbiy yurishlarini yozuvsiz xaritaga yoki qog`ozga tusgiring.

3-guruhga topshiriq: Amir Temurning 1381-1388-yillarda o`z davlatiga qo`shib olgan shahar va viloyatlarni yozuvsiz xaritaga yoki qog`ozga tushiring.

4-guruhga topshiriq: Markazlashgan davlat tashkil topishining ahamiyatini ko`rsating. Guruh a`zolarining ishi yozilgan qog`oz doskaga ilinadi va tushuntiriladi. Boshqa guruh a`zolari ham fikr bildirishi, to`ldirishi mumkin.

V. Xulosa.

Darsni yakunlash.

O`quvchilar bilimini baholash.(3-daqiqa)

VI. Uyga vazifa(2- daqiqa)

Amir Temurning yoshligiga oid hikoyalarni o`qib kelish, krossvord tuzish.